

## **IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH BO'YICHA XORIJIY DAVLAT AMALIYOTI TAHLILI.**

**Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li**

[boburturonboyev@gmail.com](mailto:boburturonboyev@gmail.com)

*Qo'qon Universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi*

**Abdulaziz Ismoilov Azizbek o'g'li**

[abdulaziz15052006@gmail.com](mailto:abdulaziz15052006@gmail.com)

*Qo'qon Universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ikki yoqlama soliqqa tortish muammosi global iqtisodiy munosabatlar kengayib borayotgan hozirgi davrda xalqaro soliq tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishda xorijiy davlatlar amaliyoti asosida ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha xalqaro soliq shartnomalari va kelishuvlarning huquqiy, iqtisodiy va institutsional jihatlari tahlil qilinadi. Jumladan, OECD model konvensiyasi, AQSh, Germaniya, Yaponiya va boshqa davlatlarning ikki tomonlama soliq kelishuvlari asosida ushbu muammoni hal qilishda qo'llanilayotgan mexanizmlar yoritiladi. Xalqaro amaliy tajriba asosida O'zbekiston uchun ham mos taklif va strategik yo'nalishlar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** soliq to'lovchi, soliq huquqi, soliq rezidenti, ikki yoqlama soliqqa tortish, yagona manba, xalqaro munosabatlar, xalqaro shartnomalar.

**Annotation:** The issue of double taxation has become one of the most pressing challenges in the modern international tax system as global economic relations continue to expand. This scientific study analyzes the legal, economic, and institutional aspects of eliminating double taxation based on the practices of foreign countries. In particular, it highlights the mechanisms used to resolve this issue through bilateral tax treaties, including the OECD Model Convention and agreements implemented by countries such as the United States, Germany, Japan, and others. Based on international experience, the study also develops appropriate proposals and strategic directions for Uzbekistan.

**Key words:** taxpayer, tax law, tax residency, double taxation, source of income, international relations, international treaties.

**Аннотация:** Проблема двойного налогообложения является одной из наиболее актуальных в современной международной налоговой системе на фоне расширяющихся глобальных экономических отношений. В данном научном исследовании анализируются правовые, экономические и институциональные аспекты устранения двойного налогообложения на основе опыта зарубежных стран. В частности, рассматриваются механизмы, применяемые в рамках двусторонних налоговых соглашений, включая Модельную конвенцию OECD Р, а также соглашения, заключённые такими странами, как США, Германия, Япония и другие. На основе международной практики разработаны соответствующие предложения и стратегические направления для Узбекистана..

**Ключевые слова:** налогоплательщик, налоговое право, налоговый резидент, двойное налогообложение, источник дохода, международные отношения, международные соглашения.

Ikki yoqlama soliq solishni bartaraf etishga doir bo‘lgan kelishuvlar soliqqa tortish huquqlarini davlatlar o‘rtasida taqsimlaydi. Biroq, ular eski bo‘limgan daromad obyektlarini yaratmaydilar. Aksincha, raqobatbardosh ravishda qilingan foydaga doir soliq obyektlari mavjud bo‘lsa, shularni ikki yoqlama soliq solishning oldini olish maqsadida soliq solish vakolatini shartnomalarda qayd etilayotgan davlatlardan biriga taqsimlanadi.

Daromad va kapital solig‘i bo‘yicha ikki tomonlama soliqqa tortish shartnomalari bilan bir qatorda meros va hadya solig‘i va avtotransport solig‘i bo‘yicha ham ikki tomonlama soliqqa tortishni tartibga solish bo‘yicha maxsus shartnomalar mavjud. Huquqiy va ma’muriy yordam ko‘rsatish va axborot almashish bo‘yicha kelishuvlar ham mavjud. Soliq organlari o‘rtasida ma’lumotlar almashinushi soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash va soliqdan bo‘yin tov lash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashish, to‘g‘ri soliqqa tortishni ta’minlashning muhim elementidir.

Germaniyada va xorijiy investorlar kelib chiqqan davlatda foydaga ikki tomonlama soliq solishning oldini olish maqsadida ushbu davlatlar o'rtasida yil davomida ikki tomonlama soliqqa tortish bo'yicha shartnomalar imzolanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi ikki yoqlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik va soliq to'lamaslik uchun amalga oshiriladigan harakatlarni to'xtatish jarayonida ham konvensiya jahon iqtisodiyotining soliq munisabatlarida ham asosiy hujjatlardan biridir. Ushbu konvensiya ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish, soliq to'lovchilar uchun noqulayliklarni kamaytirish va ikki marta soliq solinishi muammosini hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Konvensiya asosan daromad va kapital soliqlari bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi soliq majburiyatlarini aniq belgilaydi. Bu esa o'z navbatida, soliq to'lovchilar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar uchun bir xil sharoitlar yaratadi. Shuningdek, konvensiya doirasida soliq to'lashdan bo'yin tovslashning oldini olish uchun aniq me'yorlar va tartib-qoidalar o'rnatilgan.

Bir daromad manbasiga nisbatan ikki marotaba soliq solinish muammolari xalqaro bitimning asosiy mohiyati hisoblanadi, bunday salbiy holatni ijobiliylashtiradigan choratadbirlar uning asosiy mazmunini qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kengaygan sari ikki marotaba soliqqa tortish muammosi ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalar o'sishi bilan birga, soliq to'lovchilar ko'pincha bir vaqtda bir nechta davlatda daromad oladilar. Bu esa ularning daromadiga nisbatan ikki marta soliq solinishi xavfini keltirib chiqaradi. Konvensiya ushbu muammoni hal etish uchun ikki tomonlama asosda normativ me'yorlar ishlab chiqadi.

Konvensiya doirasida har bir davlat o'z hududida olingan daromad va kapitalga soliq solish huquqini saqlab qoladi. Biroq, soliq to'lovchilar uchun soliq stavkalari aniq belgilanadi, bu esa ularning soliqqa tortilishi vaqtida adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

Konvensiya asosida ba'zi hollarda daromad va kapital bo'yicha soliqlardan ozod qilish imkoniyatlari mavjud. Masalan, agar qaysidir davlatda belgilangan soliqlarni to'lovchi boshqa davlatdan olingan daromadga soliq to'lashdan imtiyoz berilsa, bu jarayonida keyingi davlatda ham shunday qonun qabul qilingan bo'lishi kerak.

Konvensiya doirasida davlatlar o‘zaro soliq ma’lumotlarini almashish mexanizmlarini joriy etadi. Bu jarayon soliq to‘lashdan bo‘yin tov lashning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Davlatlar o‘rtasidagi soliq nizolarini hal etish uchun maxsus mexanizmlar belgilangan. Bu jarayonlar soliq to‘lovchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Germaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama Konvensiya, iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bu Konvensiya doirasida ikki davlat o‘rtasidagi savdo, investitsiya va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Konvensiyada soliq siyosatining ishslash mexanizmlariga alohida e’tibor berilgan, udhbu hujjat doirasida mamlakatlar orasidagi soliq munosabatlarini tartibga solish uchun belgilangan tartib-qoidalar mavjud. Har ikki davlat soliq ma’muriyatları o‘zaro ma’lumot almashish mexanizmlarini joriy etgan, bu esa soliq to‘lovchilarning soliqdan bo‘yin tov lash harakatlarini nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, soliq to‘lovchilar o‘z daromadlarini to‘g‘ri deklaratsiya qilishlari kerak, aks holda, ushbu ma’lumotlar boshqa davlatdan olingan ma’lumotlar bilan solishtirilganda salbiy tafovut chiqishi oqibatida ma’nuriy tartibda choralar ko‘riliishi aniq belgilangan.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatları ham ushbu shartnomaning e’tiborli jihatlaridan biri hisoblanadi. Konvensiyada har bir soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatları belgilangan bo‘lib, ularning asosiyлари quyidagilardan hisoblanadi:

— soliqdan ozod qilish, (Agar soliq to‘lovchi bir davlatda daromad olgan bo‘lsa va shu davlatda soliq to‘lasa, ikkinchi davlatda ikki marta soliq to‘lanmaydi. Bu jarayon soliq to‘lovchilar uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi.)

— xalqaro miqyosda tan olingan huquqlar, (Soliq to‘lovchilar o‘z huquqlaridan foydalanishlari, shuningdek, davo qilish imkoniyatlariga ega. Agar biror holatda soliq to‘lovchi adolatsiz soliqga tortilsa, u sudga murojaat qilish huquqiga ega.)

Konvensiya qoidalarini to‘g‘ri amalga oshirish uchun amaliy bilimga ega bo‘lgan mutaxasislar va soliq maslahatchilari muhim rol o‘ynaydi. Ular soliq to‘lovchilarga konvensiya shartlarini tushuntirib berish, to‘g‘ri deklaratsiya qilish, hujjatlarni tayyorlash va soliq to‘lovleri bilan bog‘liq masalalarda yordam berishlari lozim. Shuningdek, ularning

yordamida soliq to'lovchilar bir vaqtning o'zida ikki davlatda to'lovlar to'lashdan qochish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Konvensiya doirasida nizolarni hal etish uchun maxsus mexanizmlar joriy etilgan. Agar belgilangan soliq va yig'implarni to'lovchilar biron-bir davlatdagi soliq majburiyatlari haqida boshqa davlatda turib xabardor bo'lsa, bunday holatda nizoni bartaraf qilish uchun arbitratsiyadan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu jarayon soliq to'lovchilar uchun noqulayliklarni kamaytiradi va adolatli qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha xalqaro shartnomalar va konvensiyalar bugungi kunda transmilliy iqtisodiy munosabatlarda adolatli soliqqa tortishni ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, OECD model konvensiyasi, Germaniya va AQSh o'rtaqidagi ikki tomonlama konvensiya kabi hujjatlar soliqqa oid nizolarni bartaraf etish, soliq yukini adolatli taqsimlash va soliqdan bo'yin tov lash holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Konvensiyalar yordamida daromad va kapital solig'i, meros va hadya, shuningdek, transport vositalariga oid soliqlarning ikki martalik soliq yukini oldini olish, davlatlar o'rtaida soliq ma'lumotlari almashinuvini yo'lga qo'yish va soliq nizolarini hal qilishda arbitraj mexanizmlarini qo'llash imkoniyati yaratilgan. Ayniqsa, norezidentlarga to'lanadigan daromadlarga nisbatan soliqlarni kamaytirish yoki bekor qilish orqali xalqaro investitsiyalar uchun qulay muhit shakllantiriladi.

Shu bilan birga, bunday konvensiyalarni samarali tatbiq etish uchun malakali soliq mutaxassislari va maslahatchilarning roli beqiyosdir. Ular soliq to'lovchilarga xalqaro soliq me'yorlarini to'g'ri tushuntirishi, deklaratsiyalarni shakllantirishda yordam berishi va soliq majburiyatlarini aniq bajarishda ko'maklashishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ikki yoqlama soliqqa tortish muammosini hal qilish uchun xalqaro soliq shartnomalari nafaqat iqtisodiy manfaatlarni himoya qiladi, balki adolatli soliq tizimini shakllantirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston ham xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, o'z soliq siyosatida ushbu mexanizmlarni joriy etish orqali xorijiy investorlar uchun yanada ishonchli va barqaror muhit yaratishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: —Moliya, 2016.– 192 b.
2. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
3. Ogli, T. B. Q. (2021). XO’JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.
4. Turanboyev, B. (2024). O’ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
5. Turanboyev, B. (2024). ILG’OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.
6. Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60;
7. <http://www.bff-online.de> (Germaniya federativ respublikasining moliya bo'yicha federal idorasi rasmiy sahifasi);
8. <http://www.oecd.rog> (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti rasmiy sahifasi).